

ISUZU AVTOBUSLARINING YURISH QISMI ISHONCHLILIGINI TADQIQ ETISH

Axunov J.A., Tojiboyev Sh.I.

Assistentlar:

(Farg'ona politexnika instituti)

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda Respublikamizda va chet ellarda ishlab chiqarilgan avtobuslar yo'lovchilarni tashishda xizmat ko'rsatmoqda. Ushbu avtobuslarning agregat va tizimlarini ekspluatatsion ishonchliligini boshqarishga katta e'tibor berilmoqda. SHu sababli Toshkent shahrida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatayotgan ISUZU avtobuslarining yurish qismida kelib chiqayotgan turli buzulishlari tufayli avtobuslarning turib qolish holatlari uchramoqda.

Avtobusining yurish qismining umumiy tuzulishi (1-rasm) keltirilgan.[1]



1-rasm.

ISUZU avtobuslarining yurish qismining tuzulishi.

1- g'ildiraklar, 2- ko'priklar,
3- osmalar.

Agarda yurish qismining har bir elementining buzilishini mustaqil tasodifiy hodisa deb hisoblansa, u holda yurish qismining buzilmasdan ishlash ehtimolligi quyidagicha aniqlanadi:


$$R_{\text{io},k}(L) = R_{\Gamma}^n(L) \cdot R_{oo}^2(L) \cdot R_{oop}^2(L) \cdot R(L)_{ok} \cdot R(L)_{opk} \quad (1)$$

bu yerda: $R_{\Gamma}(L)$ - g'ildirakning buzilmasdan ishlash ehtimolligi n-g'ildiraklar soni; R_{oo} , $R_{oop}(L)$ - mos ravishda chap, o'ng oldingi va orqa osmalarning buzilmasdan ishlash ehtimolligi; $R(L)_{ok}$, $R(L)_{opk}$ - mos ravishda oldingi va orqa ko'priklarning buzilmasdan ishlash ehtimolligi. Yurish qismining har bir elementining buzilmasdan ishlash ehtimolligini aniqlashda ularning konstruktsiyasini e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

ISUZU avtobuslarining yurish qismi bo'yicha ekspluatatsiya jarayonida quydagi nosozliklar uchraydi:

- g'ildiraklarning o'rnatish burchaklarining buzilishi;
- shinalarning bir taraflama yeyilishi;
- ko'prik balkasi va detallarini sinishi;
- orqa osmaning geometrik shakli, o'lchamlari o'zgarishi va dars ketishi;
- ressoralarni qiyshayib yoki sinib ketishi;
- amartizator purjinalarni elastikligini kamayishi, sinib ketishi boshqalar misol bo'la oladi.

Bu nosozliklar avtobuslarning bir maromda ishlay olmasligiga yo'llarda buzilib qolishiga va korxonalarda turib qolishiga olib keladi.



2-расм. **ИСУЗУ** автобусининг орқа осмасини тузилиши:

1. рессор кранштейини;
2. орқа рессор;
3. кўшимча рессор;
4. орқа кўпrik;
- 5 стреманка;
6. рессор листларини қисгичи (хомут).
7. амартизатор

Avtobusining orqa osmasining tuzilishiga binoan (rasm 2) uning buzilmasdan ishslash ehtimolligi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_{o.op}(L) = R_1(L) \cdot R_2(L) \cdot R_3(L) \cdot R_4(L) \cdot R_5(L) \cdot R_6(L) \cdot R_7(L), \quad (2)$$

bu yerda: $R_1(L), R_2(L), R_3(L), R_4(L), R_5(L), R_6(L), R_7(L)$... -mos ravishda yurish qismi elemenetlarning buzilmasdan ishslash ehtimolligi.

Xar bir elementning buzilmasdan ishslash ehtimolligi sinov natijalariga ko'ra quyidagicha aniqlanadi [1].

$$R(L) = \frac{N_0 - \sum m(L)}{N_0}, \quad (3)$$

bu yerda: N_0 - kuzatuvga olingan buyumlar soni, dona; $\sum m(L)$ - kuzatuv davri (L -masofa) ichida buzilgan buyumlar soni, dona.

Agarda orqa osma elementlari 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 buzilmasdan ishslash ehtimolligi $R(L) = 0,999$, asosiy va qo'shimcha ressorani $R(L) = 0,999$ deb qabul qilinsa u holda orqa osmaning buzilmasdan ishslash ehtimolligi (formula 2)

quydagicha

$R(L) = 0,999^2 * 0,999^2 * 0,999^2 * 0,999 * 0,999^4 * 0,999^8 * 0,999^2 = 0,979$ teng bo'ladi.

Maъlum masofadan so'ng ushbu buzilmasdan ishslash ehtimolligini 0,99 deb faraz qilsak u xolda;

$$R(L) = 0,99^2 * 0,99^2 * 0,99^2 * 0,99 * 0,99^4 * 0,99^8 * 0,99^2 = 0,809$$

Ushbu misoldan ko'rinish turibtiki buzilmasdan ishslash ehtimolligi kamayishi bilan ob'ekitning buzilmasdan ishslash ehtimolligi keskin pasayib ketadi.

Shuning uchun texnik servis va ta'mirlash vaqtida bajariladigan ishlarni to'liq va sifatli bajarish hamda "hamroh" joriy ta'mirlash ishlarini tadbiq etish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Axunov, J. A., & Tojiboyev , S. I. o'g'li. (2023). AVTOBUSLARDA YO'LOVCHILAR TASHISHNI TASHKIL ETISH. GOLDEN BRAIN, 1(14), 91–93.
2. Axunov, J. A., & Tojiboyev , S. I. o'g'li. (2023) LOGISTIKA ORQALI MAHSULOTLARNI YETKAZIB BERISH TIZIMINI BOSHQARISH Talqin va tadqiqotlar. "**Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida**" mavzusidagi 7-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi 15-18.
3. F.A.Omonov, & J.A.Odilov. (2022). DEVELOPMENT OF ORGANIZATIONAL CONDITIONS FOR THE INTRODUCTION OF SITUATIONAL MANAGEMENT METHODS IN PUBLIC TRANSPORT. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(05), 109–112. <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-05-24>
4. Umidjon o'g'li, K. S., Khusanboy o'g'li, M. Q., & Mukhammedovich, K. S. (2022). THE FORMATION OF TASKS FOR OVERVIEW OF OPERATING PROPERTIES OF VEHICLES. American Journal Of Applied Science And Technology, 2(05), 71-76.
5. Khujamqulov, S. (2022). Analysis Of Existing Methods and Means of Monitoring the Technical Condition of Motor Vehicles. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 9, 62-67.
6. Khujamqulov, S. (2022). A method of conducting experiments on the production of car tires and the disposal of obsolete car tires. Science and innovation, 1(A3), 61-68.
7. Omonov, F. A. (2022). Formation and Analysis of Urban Passenger Traffic Control. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 6, 6-13.

8. Omonov, F. A., & Sotvoldiyev, O. U. (2022). ADAPTATION OF SITUATIONAL MANAGEMENT PRINCIPLES FOR USE IN AUTOMATED DISPATCHING PROCESSES IN PUBLIC TRANSPORT. International Journal of Advance Scientific Research, 2(03), 59-66.
9. Abdukhaliqovich, I. I., & Abdusalilovich, J. A. (2020). Description Of Vehicle Operating Conditions And Their Impact On The Technical Condition Of Vehicles. The American Journal of Applied sciences, 2(10), 37-40.